

**TARJIMANING AMALIY VA NAZARIY MUAMMOLARI PRACTICAL
AND THEORETICAL PROBLEMS OF TRANSLATION**

Student of the State World Languages University of Uzbekistan

Shermamatova Zamira Nurmamat kizi

Tel number: +99897 333 32 08

Email:

shermamatovazamira2@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjima nazariyasi va bu sohadagi amaliy va nazariy muammolarni yoritishga bag'ishlanadi. Bundan tashqari, tarjima tarixi, tarjima usullari, frazeologizmlar tarjimasi, tarjima metodlari hamda tarjima sohasidagi muammolar va yutuqlar borasida ham so'z boradi. Tarjima sohasining alohida fan sifatida shakllanishi to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Tarjima, bevosita va bilvosita tarjima, frazeologizm, terminologiya, muammolar, yutuqlar.

Аннотация: Статья посвящена теории перевода и освещению практических и теоретических проблем в этой области. Кроме того, будут обсуждаться история перевода, методы перевода, перевод фразеологизмов, приемы перевода, а также проблемы и достижения в области перевода. Приведены сведения о формировании переводческой деятельности как отдельной дисциплины.

Ключевые слова: Перевод, прямой и косвенный перевод, фразеология, терминология, проблемы, достижения.

Annotation: This article is devoted to the theory of translation and the practical and theoretical problems in this field. In addition, the history of translation, translation methods, translation of phraseologisms, translation methods, as well as problems and achievements in the field of translation are discussed. Information is provided on the formation of the field of translation as a

separate discipline.

Keywords: *Translation, direct and indirect translation, phraseologism, terminology, problems, achievements.*

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit'alari va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan odamzod nasllari o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositasida namoyon qildi. Ma'lumki, jahon tamaddunining beshigi Sharq hisoblanadi. Aleksandr Makedoniskiy Sharqni istilo qilganida qadimgi Hindistonda rivojlangan tabiiy fanlarning yutuqlari, ko'hna Eron madaniyati tajribalarini o'zlashtirib, G'arb ilm-fani va madaniyati muvaffaqiyatlarini o'zaro omuxta qilgan holda Yunonistonda antik davr uyg'onishi sodir bo'ldi. O'sha vaqtda, jumladan, "Avesto" ning to'liq nusxasini Makedoniyaga olib ketib, tabiat, geografiya, dehqonchilik, tabobatga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan ekan. O'z navbatida, agarda yunon va Sharq madaniyatining uyg'nlashuvi bo'lmagada, mumtoz musulmon madaniyati yuksak darajaga erisha olmagan bo'lardi. Gap shundaki, arab xalifaligi davrida Bag'dodda tashkil qilingan "Bayt ul – hikma" akademiyasida turli joylardan iste'dodli kishilar to'planib, yunon, yahudiy, Sanskrit, va fors tillaridagi ilmiy va falsafiy asarlari arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanishgan va ularni butun musulmon yurtlarga tarqatishgan. Shu tariqa Sharq o'lkasiga tarjima sohasi kirib kelgan.

Tarjima nazariyasiga to'xtaladigan bo'lsak, u tarjima amaliyoti, tarjima asoslari, tarjima jarayonlari, tarjimon faoliyati, tarjima tarixi va ularni o'rganish asosida tug'ilgan til bilan chambarchas bog'liq, tarjimaning qonun- qoidalari, yo'l-yo'riqlarini aks ettiradi va umumlashtiradi. Tarjima nazariyasi tarjimaning keng jonli amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlar, rang-barang tajribalarni ilmiy- tanqidiy o'rganadi, tarjima qoidalari va tamoyillarini,

ularning chegaralari, me'yorlarini bayon qiladi. Tarjima sohasining o'zini bir necha tarmoqlarga bo'lishimiz mumkin:

UZOQ TILLARDAN TARJIMA

YAQIN TILLARDAN
TARJIMA

QADIMIY TILDAN
TARJIMA

Bundan tashqari, tarjimaning quyidagicha usullari ham mavjud:

- Adekvat
- Erkin
- Ijodiy
- So'zma – so'z

Adekvat tarjima – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima. Bunday tarjima deyilganda, asl nusxaning shakli va mazmuni o'rtasidagi o'ziga xos munosabatlarni saqlab qola bilish, tarjima qilinayotgan tilda bu xususiyatlarni qayta tiklash yoki o'shanga mos funksional xususiyatlar yarata olish yo'li bilan qilingan tarjima tushuniladi.

Erkin tarjima – bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bunday tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi.

Ijodiy tarjima – esa g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so'zma – so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi

erkin tarjimaga ham zid tushuncha hisoblanadi.

So'zma – so'z tarjima - “..... so'zma – so'z va hijjalab tarjima qilish degan ikkita tushunchani almashtirmaslik kerak. Hijjalab tarjima qilish – turli – tuman tillarning so'zlari o'rtasidagi nuqul tashqi, shakliy o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjimadir. So'zma – so'z tarjima esa “ so'zni- so'z” bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjimadir”.¹

Bevosita tarjima – bir tildagi asarning ikkinchi tilga to'g'ridan – to'g'ri asliyatdan o'girilishi. Bu – eng to'g'ri va maqbul yo'l bo'lsa-da, barcha tillardan bevosita tarjima qilish imkoniyati hamisha ham mavjud emas. Shuning uchun vositachi til xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Bilvosita tarjima – bir tildagi asarning ikkinchi tilga vositachi til orqali tarjima qilish. Masalan, mustaqillikgacha G'arb adabiyoti namunalari o'zbek tiliga ularning rus tilidagi tarjimasi orqali tarjima qilib kelingan.

¹ Ko'chirma quyidagi kitobdan olindi: Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: “Fan”, 1966, 272 – 273- betlar.

Odatda, erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug'dirmaydi. Agar erkin birikmadagi so'zlardan biri ko'chma ma'noda qo'llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralar(frazeologizm)ning bir necha turi mavjud bo'lib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Masalan, ingliz tilidagi “ a medical man” birikmasini tarjima qilishda “ a stout man” birikmasini tarjima qilishda qo'llangan usuldan foydalanib bo'lmaydi. Ingliz tilidagi “ a stout man “ o'zbek tiliga “to'ladan kelgan” deb tarjima qilinsa, “ a medical man” birikmasi esa o'zbek tiliga tarjima qilishda so'zma-so'z to'g'ri kelmaydi. Bu yerda ikki so'z bitta ma'noni ifodalaydi va u “shifokor” deb tarjima qilinadi. Turg'un birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg'un birikmalar tarjimasi haqida gapirishdan avval ularning o'z va ko'chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O'z ma'nosida qo'llangan turg'un birikmalarni tarjima qilish ma'lum bir prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri

tarjima tili normalarini unutmaslik hisoblanadi. Shunday qilib, frazeologizm va unga yondosh bo'lgan terminologiya sohasidagi so'zlarni tarjima qilishda ayrim qoida va prinsiplarga tayanish talab etiladi. Tarjima qilish faoliyati bir nechta metodlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, *kompresiya* metodi. Bu jarayon tarjimada ma'lumotni ixchamlash, uni kam so'zlar bilan ifoda etish va asosiy ma'noni berish bilan ifodalanadi. Semantik kompresiya; bu jonli otlar o'rniga olmoshlarning ishlatilishidir. Masalan: Tom and John went to the garden – ular bog'ga ketishdi kabi. *Qaytarish* tarjimonlarni tayyorlashda eng muhim usullardan biridir. Bu usul quloq eshitgichlar yordamida qo'llaniladi. Bu usulda odatda ona tilidagi gapni eshitib va uni bir vaqtning o'zida shu ona tilida qaytarishga o'rgatiladi, chet tiliga tarjima qilib qaytarish keyingi bosqichda amalga oshiriladi. *Ma'lumotlarni yodda saqlab qolish* tarjima davomida muhim narsalardan biri hisoblanadi. U o'z ichiga doimiy, qisqa, o'rta va uzoq muddatli xotirani talab qiladi:

- a) Matnlarni eslatma yozuv orqali belgilab olish;
- b) Chet tilidagi kishi ismlarini diqqat bilan eshitish, raqamlarni va hajmlarni esda saqlab qolish qobiliyatiga ega bo'lish.

Tarjima sohasidagi muammolarga kelsak, tarjimon xabarning dallilar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanligini bilishi lozim. Misol uchun, “men bilmayman” (“I don't know”) faqatgina bayonot kabi tarjima qilinmaydi, balki ikkilanish (“ko'ramiz”) degan ma'noni ham anglatishi mumkin. “What gives” Amerika shevasida “ishlar qalay” degan mazmundagi savolni beradi. Bu tarjima xabarni lingvistik va madaniy to'siqlar orqali o'tkazish jarayonidir. Shunday qilib, tarjima yuzlashadigan eng qiyin muammolardan biri buyumlar yoki voqea – hodisalarning leksik ekvivalentini topishdir. Tarjimon faqatgina ikki tilni emas, balki ikki madaniyatni taqqoslaydi. Madaniyatlarning farqi tufayli tarjima qilinadigan tildagi tushunchalarda tarjima qilinayotgan tilde leksik ekvivalent bo'lmasligi mumkin. Bu geografiya, urf-odatlar, e'tiqodlar, dunyoqarashlar va boshqalarning turlicha bo'lishi farq qilishi mumkin.

Tarjimon bunday vaziyatda tushunchalarni ifodalash uchun tarjima tilida yangi yo'l va usllarni topishi zarur. Tarjima nazariyasi fani tilshunoslikdan ajralib chiqqan. U asosan, semantikaga oid bo'lgan barcha savollarini o'z ichiga oladi. Tilning ijtimoiylashuvi natijasida alohida fan sifatida shaklandi. Tarjima nazariyasining asosiy maqsadi bir nechta turdagi matnlarni tarjima qilish usullarini aniqlashdan iboratdir. U tarjima nazariyasida ko'rsatilgan matnga mos variantlar tanlashda turli xil qoida, tamoyillar tarjima bo'yicha olimlarning turli cil fikrlari haqida ma'lumot beradi. Tarjima nazariyasi va madaniyatining umumiy, tabiiy va shaxsiy mavzulari haqida axborot berishga harakat qiladi. Tarjima va madaniyat tushunchalari o'zaro ajralmasdir. Zero, tarjima jarayonida xorijiy davlatlar bilan yuzlashamiz. Shu sababdan ham, tarjimada muvaffaqiyatimiz xorijiy madaniyatni qanchalik tushunishimizga bog'liq. Shu kunga qadar, ma'lumki, deyarli dunyoning barcha davlatlari bilan madaniyatlararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yganmiz. Bu orqali o'zaro dunyoqarash va tajribalarimizni almashyapmiz. Bularning barchasi tarjima sohasi uchun qaratilgan sa'y – harakatlar natijasi o'laroq, mamlakatimizning siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynamoqda. Yana bir yutuqlardan biri sifatida bugungi kunda jahonning durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishni keltirish mumkin. Hozirda yurtimiz kutubxonalarida istalgan kitobni mutolaa qilish imkoniyati ham tarjima sohasidagi "topilmalarning" samarasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Tarjima nazariyasi: I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov. – Toshkent : Tafakkur- Bo'stoni, 2012. 26-176 betlar.*
2. *Tarjima nazariyasi: E. Ochilov, N. Xodjayeva. – Toshkent : 2020. 25-86 betlar.*
3. *Tarjima nazariyasi asoslari: Q. Musayev. – Toshkent: "Fan", 2005.*
4. *Tarjima nazariyasiga kirish : G'. Salomov. – Toshkent: "Fan", 1980*
5. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti: E. Ochilov. – Toshkent: Sharqshunoslik institute, 2012.*